

## [COVID-19] Mamlakat (Koreya) ichida yakuniy emlashni tugatganlar Koreyaga kirganda karantindan ozod etilishi haqida ma'lumot]

Koreyada emlashni tugatgan va mamlakatni tark etib Koreyaga qaytgan chet ellik talabalar yakuniy emlashdan keyin 14 kun o'tgan bo'lsa karantindan ozod etilishlari mumkin. Koreyada qoladigan chet ellik talabalar xavfsiz o'qish hayoti va soddalashtirilgan immigratsiya tartib-qoidalari uchun emlanishni amalga oshirishlari uchun quyidagi oqim jadvalini tekshiring.

### ○ Koreyada emlashni tugatganlar uchun karantindan ozod qilish talablari

- ① Koreyada emlangan bo'lishi kerak (emlash tugaganidan keyin 2 hafta o'tgach)  
\* Masalan : Koreyada yakuniy emlash kuni 1 sentabr bo'lsa, Koreyaga kirish kuni 16 sentabr 24:00dan keyin bo'lsa karantindan ozod qilinishi mumkin
- ② COVID-19-ning klinik alomatlarini yo'q bo'lishi kerak
- ③ Koreyaga quyidagi davlatlardan kelinmagan bo'lishi kerak (※ Har oy o'zgaradi)

**\*(Noyabr oyi) Chet ellik talabalar uchun davlatlar : O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Philippin**

↳ Agar siz yuqorida sanab o'tilgan davlatlardan biriga kirsangiz, Koreyada emlangan bo'lsangiz ham, Koreyaga kirishda karantin majburiy hisoblanadi.

### ○ Tartib

Koreyada COVID-19ga qarshi emlashni tugatib chet elga chiqib yana Koreyaga qaytib kirish



Koreyaga kirayotganda **emlash haqida ma'lumotnoma (예방접종증명서)**, PCR salbiy natijasi ma'lumotnomasini topshirish

※ Koreyaga kirish kunida va emlash tugaganidan keyin 14 kun o'tgan bo'lishi kerak



Koreyaga kirishdan keyin 1 kun ichida (24 soat ichida) PCR testi o'tkaziladi



Salbiy natijalar tasdiqlaganidan keyin karantindan ozod bo'lish va **\*passiv nazorat**

\*Passiv nazorat bu? 14 kun davomida salomatlik holatini kuzatish, alomatlar mavjud bo'lsa, test topshirish, maska taqish va iloji boricha ko'chaga chiqmaslik kabi karantin qoidalariga rioya qilish



Koreyaga kirgandan so'ng 6~7 kuni qo'shimcha PCR testini topshirish



Salbiy natija tasdiqlanganidan keyin ham passiv nazoratni davom ettirish

※ Koreyaga kirilgan kundan boshlab 14 kundan keyin keyingi kuni passiv nazorat tugaydi

○ **Emlash haqida ma'lumotnomani qanday olish kerak (예방접종증명서)** : ketishdan oldin vakolatli sog'liqni saqlash markaziga (보건소) murojaat qiling

### ○ Boshqalar va ehtiyot choralarini

- Mamlakatda (Koreya) emlashni tugatganlar karantindan ozod qilinish talablariga javob bermasalar, karantindan ozod qilinishi mumkin emas
- Koreyada emlashni tugatganlar aeroportdan uyga ketayotganda jamoat transportidan (iloji boricha shaxsiy mashina) foydalanishlari mumkin, harakatlanish paytida boshqa joylarga bormasdan to'g'ridan-to'g'ri karantin zonasiga uyga borish kerak
- Agar emlash Koreyadan tashqari boshqa davlatda tugallangan bo'lsa, karantindan ozod qilish mumkin emas <Koreyaga kelgandan keyin 10 kunlik karantin talab qilinadi>